Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 11

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№11 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-11

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Бобожонова Дилором Бобожоновa
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси

Ғоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети

Маҳкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети

Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), профессор, Наманган давлат университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Аббасов Беҳзод Бахтиёрович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат иқтисодиёт университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Diloram Babajanova
YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....5

2. Abdurasul Boltaev
TURONI ZAMINNING DAVLATChILIKDAGI TUTGAN O'RNI.....12

3. Muysin Dusaliyev
QO'QON XONLIGINING BUXORO VA XIVA BILAN HUDUDIY NIZOLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OQIBATLARI.....21

4. Кобзева О.П.
ИСТОРИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ КУШАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ОТ ТОРГОВОЙ ДИПЛОМАТИИ К ДИПЛОМАТИИ «МЯГКОЙ СИЛЫ».....30

5. Ulmas Muminov
"DASHT MADANIYATI" TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....37

6. Asliddin Namazov
XX ASRNING 30-YILLARI MADANIY-MA'RIFIY MUASSASALARNING KOMFIRQA SIYOSIY-G'OYAVIY TARBIYA O'CHOQLARIGA AYLANTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI.....42

7. Jurabek Polvonov
XIVA XONLIGI DIPLOMATIYASI VA ELCHILIK MUNOSABATLARI: TARIXIY-MANBASHUNOSLIK TAHLILI.....46

8. Soxiba Sulaymanova
G'ARBIY TURK XOQONLIGINING TASHKIL TOPISHI VA TANAZZULLI.....55

9. Rano Urazova
THE AMESHAPENTA SYSTEM IN ZOROASTRIANISM AND ITS FUNCTIONAL ESSENCE: CONCEPTS OF GOODNESS AND DIVINE ORDER.....60

10. Муродилла Ҳайдаров
Г. САФАРОВНИНГ МУСТАМЛАКА ИНҚИЛОБИ (ТУРКИСТОН ТАЖРИБАСИ) АСАРИДАН ПАРЧА.....70

11. Ғайратбек Хайдаров
ХАЛҚАРО ИНВЕСТИЦИЯ ВА ТУРИЗМ СОҲАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ (Фарғона вилояти мисолида).....82

12. Тохир Шокиров
РАЗВИТИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ НАРОДОВ УЗБЕКИСТАНА И ЕГИПТА В ДРЕВНОСТИ.....89

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Diloram Babajanovna Babajanova,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori,
tarix fanlari doktori,
d.babajanova@uzswlu.uz

YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

For citation: Diloram Babajanova. THE IMPORTANCE OF NATIONAL VALUES IN ELEVATING YOUTH MORALITY. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 11.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24134990

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola bugungi kunda milliy qadriyatlarni avaylab-asrash va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotgan davrda o‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan diniy allomalar qoldirgan ulkan ma’naviy merosning, mo‘tabar zotlar ijodiy meroslarining Yangi O‘zbekiston yoshlari tafakkur olamini boyitishdagi o‘rniga doir ma’lumotlarni yoritishga bag‘ishlangan. Buyuk siymolarning ilmu ma’rifat o‘rganish orqali olamni ezgulikka, taraqqiyotga yetaklash maqsadida avlodlarga qoldirgan buyuk merosi insoniyat uchun bebaho xazinadir. Yangi O‘zbekistonda tarix, eng avvalo o‘tgan buyuk siymolar xalq orasidan chiqqan, shu omma taqdiri bilan hamnafas ajdodlar, ma’rifatparvar bobolar merosini chuqur o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ushbu maqolada yoshlarning ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, buyuk daholar ilmiy-tarixiy merosini chuqur o‘rganish, milliy va diniy qadriyatlar hamda buyuk zotlar hayotidan ibrat olish va saboq chiqarishga undash, ularni yuksak marralar va bunyodkorlik sari jonbozlik ko‘rsatishga yo‘naltirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Kalit so‘zlar: milliy va diniy qadriyatlar, ilmiy meros, diniy bag‘rikenglik, Yangi O‘zbekiston, yoshlar ma’naviyati, milliy g‘urur, yuksak ma’naviyat, ma’naviy salohiyat.

Бабаджанова Дилорам Бабаджановна,
профессор, доктор исторических наук
Узбекский государственный университет мировых языков,
dilorambabajanova52@gmail.com

ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПОВЫШЕНИИ НРАВСТВЕННОСТИ МОЛОДЕЖИ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена освещению информации о значении огромного духовного наследия, оставленного религиозными учеными, которое оказало мощное и эффективное влияние на формирование духовного мира узбекского народа в период, когда особое внимание уделяется сохранению и развитию национальных ценностей. Великое наследие,

оставленное великими личностями для будущих поколений с целью ведения человечества к добру и прогрессу через изучение науки и образования, является бесценным сокровищем для человечества. В Новом Узбекистане уделяется особое внимание глубокому изучению наследия великих личностей, которые вышли из народа, и которые связаны с судьбой этого народа, а также просвещенных предков.

В данной статье основное внимание уделяется повышению духовного потенциала молодежи, глубокому изучению научно-исторического наследия великих умов, призыву к извлечению уроков из жизни великих личностей и направлению молодежи к высоким достижениям и созидательной деятельности.

Ключевые слова: национальные и религиозные ценности, научное наследие, религиозная толерантность, Новый Узбекистан, духовность молодежи, национальная гордость, высокая духовность, духовный потенциал.

Diloram Babajanova,
doctor of history, professor
Uzbekistan State University of World Languages
dilorambabajanova52@gmail.com

THE IMPORTANCE OF NATIONAL VALUES IN ELEVATING YOUTH MORALITY

ABSTRACT

This article is dedicated to highlighting the significance of the immense spiritual heritage left by religious scholars, which has had a powerful and effective influence on the formation of the spiritual world of the Uzbek people in a period when particular attention is being paid to the preservation and development of national values. The great heritage left by prominent figures for future generations, aimed at leading humanity towards goodness and progress through the study of science and education, is a priceless treasure for humanity. In New Uzbekistan, special attention is given to the deep study of the legacy of great personalities who emerged from the people and who are intertwined with the fate of this nation, as well as the enlightened ancestors.

This article focuses on enhancing the spiritual potential of youth, deeply studying the scientific and historical legacy of great minds, encouraging the extraction of lessons from the lives of great personalities, and directing youth towards high achievements and constructive endeavors.

Index Terms: national and religious values, scientific heritage, religious tolerance, New Uzbekistan, youth spirituality, national pride, high spirituality, spiritual potential.

---

1. Dolzarbligi:

Bugungi kundagi globallashuv jarayonida har bir xalqning ma’naviy dunyosini shakllantirishda milliy va diniy qadriyatlar alohida ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Milliy va diniy qadriyatlar yoshlarda milliy g‘urur, ma’naviy sog‘lomlik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Darhaqiqat, milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy merosining bir qismi bo‘lib, ular xalqning o‘zligini tanishi, o‘z qadriyatlarini qadrlashini ta’minlaydi. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari orasida mehr-oqibat, mehmondo‘stlik, insonparvarlik, oilaviy qadriyatlar va urf-odatlar chuqur joy olgan. Yoshlar ushbu qadriyatlarni o‘rganish va ularni hayotda amalda qo‘llash orqali o‘z ma’naviy dunyosini boyitib boradilar.

Asrlar davomida o‘zbek xalqi orziqib kutilgan istiqlolning 35 yilligini nishonlar ekan, ayniqsa, so‘nggi o‘n yilda, har kuni, har haftasi yillarga teng bu davrda iqtisod, siyosat, madaniyat, ma’rifat, ma’naviyat sohasida qanday natijalarga erishilganini sarhisob qilib ko‘rilsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Mustaqillik, eng avvalo, bizga shonu sharafimizni, muqaddas dinimizni, ona tilimizni, unutilayotgan milliy qadriyatlarimizni

qaytarib berdi”[1]. Muqaddas dinimiz, diniy qadriyatlar insonning ma’naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Islom dinining asosiy tamoyillari — adolat, mehr-muhabbat, bag‘rikenglik va insoniylik — yoshlarning ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda asosiy omillardan biridir. Diniy ta’limotlar yoshlarga axloqiy normalarni, insonlarga bo‘lgan munosabatlarni va ijtimoiy mas’uliyatni o‘rgatadi. Prezident Sh.Mirziyoyev, “...o‘zligini chuqur anglab yetmagan, tarixiy, diniy va madaniy-ma’rifiy ildizlaridan judo bo‘lgan xalq yoki davlat, vaqti kelib, albatta inqirozga uchrashi va tarix zarvaraqlaridan butkul o‘chib ketishi hyech gap emas”[2,32]. O‘zbekiston qadimdan bag‘rikeng, milliy va diniy qadriyatlarga sodiq, madaniy-ma’rifiy ildizlarni hamisha qadrlaydigan, uni asrab-avaylaydigan diyor ekanligi ma’lum. Bu o‘lka asrlar osha o‘zining insonparvar ijtimoiy siyosati asosida doimiy tinchlik va hamjihatlikda hayot kechirishi bilan boshqa o‘lkalardan farq qiladi. Yangi O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik, milliy qadriyatlarni saqlash va uni yanada boyitish tamoyillarining yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi, milliy an’ana va qadriyatlarni yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ezgu ishlar, ko‘rsatilayotgan ulkan e’tibor va g‘amxo‘rliklar, yaratilayotgan barcha imkoniyat va sharoitlar bugungi o‘zbek xalqi hayotida aks etmoqda, yoshlarning ma’naviy salohiyatini yuksaltirish va yanada takomillashtirishda muhim omil bo‘lmoqda. Shuningdek, diniy qadriyatlar yoshlarning ma’naviy va ma’rifiy rivojlanishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Dunyoda o‘ziga yarasha yuksak salohiyati, benazir nufuziga mos ravishda o‘rin egallayotgan mustaqil O‘zbekiston atalmish davlat bor ekan, bu yurtda ana shu nomga munosib millat yashamoqda. Bu yurtda uning ota-bobolari, avlod-ajdodlari, buyuk zotlari yashab o‘tgan. Dunyoda millatlar ko‘p, ular ichida buyuk va boy o‘tmishga ega bo‘lgan ma’naviyati yuksak darajada bo‘lgan o‘zbek millati ham bor. Jahon ahli O‘zbekistonga qarab, bizning o‘tmishi nihoyatda buyuk millat sifatidagi qiyofamizni, muqaddas dinimiz, milliy-tarixiy qadriyatlarimizga xos bo‘lgan bag‘rikengligimizni ko‘radi.

Bugungi kunda O‘zbekistonga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy madaniyatimiz va ma’naviy qadriyatlarimizni jahon ahli tan olayotgan bir davrda ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shunda biz, o‘tmishdagi buyuk zotlarimiz: “Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o‘z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g‘oyalarida mujassam bo‘ldi”[3,16], deb ayta olamiz. Ular qoldirgan ulkan ma’naviy merosdan o‘rnak va ibrat olib, bu g‘oyani yoshlar ongiga tezroq yetkaza olamiz hamda ularning ilmga, tariximizga bo‘lgan hurmat-ehtiromini yanada oshiramiz, ularda milliy g‘urur shakllanishiga imkon yaratgan bo‘lamiz.

O‘zbekistonda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, o‘tgan buyuk ajdodlar xotirasini yodda saqlagan holda, e’zozlab, yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatish, ularni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Binobarin, Yangi O‘zbekistonning buyuk ne’mati bo‘lgan erki va ozodligi xalqimizning sa’y-harakati, barakali mehnati va ijodiy faoliyatidan kelib chiqish bilan birga, Turon zaminda voyaga yetgan hamda jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shib, o‘z g‘oyalari, tafakkuri bilan o‘zbek milliy g‘oyasiga asos solgan ajdodlarimizning boy merosi va sermazmun tariximizga, milliy qadriyatlarimizga ham tayanadi. Har bir millatning o‘ziga xos jihatlarini, xususan, ma’naviyatini yuksaltirishda eng avvalo, beqiyos ta’sir kuchiga ega bo‘lgan milliy-tarixiy qadriyatining o‘rni katta. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy, diniy va tarixiy qadriyatlarning qayta tiklanishi, buyuk zotlar, xususan, buyuk allomalarning tarbiyaga oid ta’limotlarining o‘rni va ahamiyati katta.

2.Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Ushbu maqola umume’tirof etilgan metodlar, jumladan tarixiylik, ilmiylik va hududiy yondoshuvlar kabi tarixiy metodlar asosida o‘rganilgan bo‘lib, unda respublikada ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy va diniy qadriyatlarni avaylab-asrash va rivojlantirish orqali yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanganligi, uni yanada takomillashtirish maqsadida turli jabhalarda olib borilayotgan

chora-tadbirlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan, mazkur yo‘nalishda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati ham ochib berilgan.

Avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va nomoddiy boyliklar, ilmiy asarlar, me’moriy yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot va san’at namunalari ma’naviy merosni tashkil etadi. Ushbu meros esa, o‘z navbatida milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlikni mustahkamlash, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va millatlararo totuvlikni ta’minlashning muhim ma’naviy manba hisoblanadi. Ushbu masalalar ko‘plab ijtimoiy soha vakillari, jumladan faylasuf va tarixchi olimlar tomonidan chuqur ilmiy nuqtai nazardan o‘rganilmoqda.

3.Tadqiqot natijalari:

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy, diniy va tarixiy qadriyatlar tarkibiga ona tiliga hurmat, Vatanga sadoqat, oila muqaddasligi, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat va bag‘rikenglik, mehnatsevarlik, milliy urf-odat va an’analar kabilarni kiritish mumkin. Ularni yoshlar ongiga singdirish uchun zamonaviy ta’lim tizimi, madaniyat va san’at vositalari, shuningdek, ijtimoiy loyihalar muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, milliy va diniy qadriyatlarni o‘rganishga qaratilgan ta’lim dasturlari, seminarlar va treninglar yoshlarning ma’naviy rivojlanishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, oilada, jamoada va maktabda milliy va diniy qadriyatlarni qadrlashga alohida e’tibor qaratilishi bugungi kunda har qachongidan ham muhimroqdir.

Yangi O‘zbekistonda tariximiz, eng avvalo o‘tgan buyuk siymolar xalq orasidan chiqqan shu omma taqdiri bilan hamnafas ajdodlarimiz, ma’rifatparvar bobolarimiz qoldirgan, milliy qadriyatlarimiz hisoblangan ma’naviy merosni chuqur o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda tobora yangilanayotgan O‘zbekistonga qarab, uning kuch-qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanligidaligini anglash qiyin emas. Yurtimizga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy madaniyatimiz va ma’naviy qadriyatlarimizni jahon ahli tan olayotgan bir davrda hamjihat, bag‘rikeng xalqimizning milliy-tarixiy qadriyatlarini avaylab-asrash va rivojlantirish asnosida yoshlar tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratilgan. Mamlakatimiz boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragi o‘zining nihoyatda sermazmun, g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi–milliy-taraqqiyparvar ziyolilarning yangi islohotchilik harakati – jadidchilik vujudga keldi. Jadidlar ta’limoti – o‘z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. Bu haqda filolog olim, pofessor Begali Qosimov Turkiston tarixining XX asr boshidagi eng muhim hodisalaridan biri hisoblangan jadidchilik harakatiga bag‘ishlangan “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik” kitobida “Jadidchilikning mohiyatini millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo‘lgan qizg‘in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o‘z boshiga yog‘ilgan har bir ofatni taqdir deb ta’bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko‘tardi. Xususan, jadidlar millatning yashamog‘i, taraqqiy topmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar**”[4.4].**

Ana shu maqsadda Yangi O‘zbekistonda buyuk allomalarimizning bebaho merosini chuqur o‘rganish va uni keng jamoatchilikka yetkazish ustuvor masalalardan biriga aylangan. Zero, xalqimizning ma’rifatparvar farzandlari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi buyuk bobolarimiz vasiyatlari va ular qoldirgan ulkan ma’naviy-tarixiy merosdan o‘rnak va ibrat olib, bu g‘oyaviy ta’limotni yoshlar ongiga qanchalik darajada singdira olsak, ularning tariximizga bo‘lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirgan bo‘lamiz. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Parlamentga Murojaatnomasida “biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi” [5**], deb ta’kidlagan edi.** Ayniqsa, yangilanayotgan O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyot yo‘lida xalqning eng katta boyligi bo‘lgan ulkan intellektual va ma’naviy salohiyat egalaridan bo‘lmish

yoshlar ma’naviyati va huquqiy madaniyatini yuksaltirishdagi o‘rni yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu maqsad ko‘zlangan ushbu jarayonda “milliy ma’naviyatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning turli mamlakatlardagi muzey va kutubxonalarda saqlanayotgan qo‘lyozmalarini o‘rganish, mavjud nusxalarini yurtimizga olib kelish, atroflicha tadqiq qilib, xalqimizga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilishi”[6,34], yo‘lida ulkan amaliy harakatlar qilinmoqda.

Mustaqillik bergan buyuk ne’matlardan biri ham shundaki, millatimizni o‘tmishi kamida uch ming yilga borib taqaladigan haqqoniy tarix bilan qurollantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk ajdodlar, shuningdek, jadid allomalarimizning tarbiyaga oid ta’limotlarining o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixning o‘tgan qisqa muddati davrida biz o‘zligimizni, o‘z g‘oyamiz, milliy g‘ururimiz va tafakkurimizni anglash tuyg‘usini boshimizdan kechirmoqdamiz. Bu tuyg‘uning ildizi bo‘lgan o‘tmish esa bugungi kunga hamohang buyuk ajdodlar g‘oyalari, tafakkuri bilan ma’naviy bog‘liqdir. Milliy g‘oyasi va g‘ururi ildizi baquvvat, haqqoniy va har tomonlama ishonchli bo‘lgan boy tariximizga yaqin o‘tmishda “millatchi”, “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” degan nom bilan kirgan, aslida xalqimiz boshiga tuhmatu malomatlar yog‘dirgan kirdikorlikni o‘zbeklar mardona yengib o‘tdilar. Shu ma’noda, sovet davlatining O‘rta Osiyo respublikalarida, eng avvalo, O‘zbekistonda olib borgan iqtisodiy siyosati mustamlakachilik siyosatining tipik namunasi edi, deb baholansa, tarixiy haqiqatga muvofiq bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosining keng o‘rganilishi, yoshlar qalbi va ongiga milliy g‘oyaning chuqur singdirilayotganligi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbekistonning bugungi yoshlari sharoit va yangi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk allomalar va ustozlardan ibrat olib ish yuritsalar, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlarini to‘liq egallaydilar, mamlakat taraqqiyoti, yuksalishi uchun yetuk va malakali kadrlar bo‘lib yetishadilar. Ana shularni nazarda tutib, Prezident ta’kidlaganidek, “Yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur**”[7,69].** Zero, taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan Yangi O‘zbekistonda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan da’vatkor g‘oya hayotimizga tobora chuqur kirib borayotgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgan bir paytda, ajdodlarimizning bebaho merosi – abadiyatga daxldor ma’naviy xazina ekanligini chuqur anglansa, bu jarayonda yoshlar qanchalik salohiyatli, ma’naviyati va huquqiy bilimi yuksak bo‘lsa, ilm-fan yanada taraqqiy etadi. Bu borada yoshlar ta’lim-tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ta’sirchanligini yanada oshirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy va diniy qadriyatlar yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu qadriyatlar yoshlarning o‘zini anglashi, ijtimoiy faolligi va ma’naviy rivojlanishini ta’minlashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlarning milliy va diniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini mustahkamlash, ularni jamiyatda faol ishtirok etishga jalb qilish, barqaror rivojlanish va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, bugungi O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir. Xalqimiz insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o‘ylab yashash, sahovat va muruvvat, bag‘rikenglik singari xalqimizga xos bo‘lgan milliy va diniy qadriyatlarning nozik kurtaklarini asrlar bo‘yi avaylab-asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’ana qva qadriyatlarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va ma’naviyati yuksak yoshlarni kamol toptirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

4. Xulosa:

Masalaga xulosa tarzida quyidagilarni ta’kidlash maqsadga muvofiqdir:

- O‘zbekistonda yoshlar muammolari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Shu sababli ham, mamlakatning barcha sohalardagi islohotlar ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor, ma’naviyati yuksak yoshlarga tayaniladi;

- yoshlar masalasi e’tibor markazidan, kun tartibidan o‘rin olganining sababi, avvalo, aholining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan yoshlar miqdor jihatidan yirik qatlam, katta kuch hisoblanadi. Shuningdek, yoshlar kuch-quvvatga to‘la, g‘ayratli bo‘lgani uchun ular boshqa guruhlarga nisbatan faol, yangiliklarga ochiq, innovatorligi va tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. Shu bois, Prezident, “biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”**[8.],** deb ta’kidlagani bejiz emas.
- Yangi O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yilgan hozirgi davrda Uchinchi renessans poydevorini yaratishga kirishilgan. Ana shu maqsadni ko‘zlagan Prezident Sh.Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir”[9,28], deb ta’kidladi. Shu boisdan ham, Yangi O‘zbekistonda buyuk allomalarimizning bebaho merosini, milliy va diniy qadriyatlarni chuqur o‘rganish hamda ularni yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga kengroq jalb etish vazifalari ustuvor masalalardan biriga aylangan.
- Milliy va diniy qadriyatlar yoshlarning ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu qadriyatlarning hayotimizdagi o‘rnini anglash va ularni hayotda amalda qo‘llash yoshlarimizning ma’naviy rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun, milliy va diniy qadriyatlarning ahamiyatini yoshlarga yetkazish, ularni rag‘batlantirish va hayotda amalda qo‘llash bo‘yicha kompleks choralar ko‘rish zarur. Bu esa yoshlarimizning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 28.08.2026/ https://pråsiåånt.uz/uz/lists/âiåw/9544
2. Shavkat Mirziyoyev. Vatan va xalq haqida o‘ylar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2025.– B.32.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.–Toshkent:O‘zbekiston, 2021.–B.16.
4. Qosimov.B. Milliy uyg‘onish:jasorat, ma’rifat, fidoyilik.–Toshkent:Ma’naviyat, 2002.–B.4.
5. Behbudiyga Cho‘lponning ehtiromi//https://uzà.uz/sp/posts/áå-áuäiygà-÷-lponning-ý-tiromi-04-02-2020.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.–B.34.
7. Yangi O‘zbekiston–yangicha dunyoqarash. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi asosida. Risola. Mualliflar jamoasi.–Toshkent, 2021.–B.69.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi https://pråsiåånt.uz/uz/lists/âiåw/4057.
9. Shavkat Mirziyoyev. Vatan va xalq haqida o‘ylar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2025.– B.28.

Использованные источники:

1. Речь Президента Шавката Мирзиёева на торжественной церемонии, посвященной 35-летию независимости Республики Узбекистан, 28.08.2026. https://pråsiåånt.uz/uz/lists/âiåw/9544
2. Шавкат Мирзиёев. Мысли о Родине и народе. – Ташкент: Узбекистан, 2025. – С. 32.
3. Шавкат Мирзиёев. Стратегия Нового Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 2021. – С. 16.

4. Қосимов Б. Национальное возрождение: мужество, просвещение, самоотверженность. – Ташкент: Маънавият, 2002. – С. 4.

5. Уважение Чулпона к Бехбудию // https://uzà.uz/sp/posts/áå-áuäiygà-÷-lponning-ý-tiromi-04-02-2020.

6. Мирзиёев Ш.М. Стратегия Нового Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 2021. – С. 34.

7. Новый Узбекистан – новое мировоззрение. Обращение Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева к Олий Мажлису 29 декабря 2020 года. Рисала. Коллектив авторов. – Ташкент, 2021. – С. 69.

8. Обращение Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева к Олий Мажлису https://prâsiâânt.uz/uz/lists/âiâw/4057.

9. Шавкат Мирзиёев. Мысли о Родине и народе. – Ташкент: Узбекистан, 2025. – С. 28.

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000